

## YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN – QIZLARNING TA'LIM OLISH IMKONIYATLARI VA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR

**Aminova Gulnoza Xakimova**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti doktoranti

**Oribjonova Sevara Zuhridin qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 3 – kurs talabasi

**ANOTATSIYA:** Ushbu maqola glaballashuv jarayonida Yangi O'zbekistonda xotin – qizlar hayoti, tarixiy taraqqiyoti, huquqiy vakolatlari kengayishi, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, shuningdek ta'siri bilan bog'liq jarayonlarning tahlilidan iborat.

**Kalit so'zlar:** Glaballashuv, Yangi O'zbekistonda xotin – qizlar hayoti, tarixiy taraqqiyoti, huquqiy vakolatlari, jamiyat hayotidagi o'rni, jarayonlar tahlili.

**АННОТАЦИЯ:** Данная статья представляет собой анализ процессов, связанных с жизнью женщин, историческим развитием, освобождением правовых полномочий, их ролью в жизни общества, а также их влиянием в современном глобализационном процессе.

**Ключевые слова:** Глобализация, жизнь женщин нового Узбекистана, историческое развитие, правовые полномочия, место в обществе, анализ процессов.

**ANOTATION:** This article is an analysis of the processes related to women's life, historical development, expansion of legal powers, their role in the life of the society, as well as their influence in the process of globalization in New Uzbekistan.

**Key words:** Globalization, women's life in New Uzbekistan, historical development, legal powers, places in society, analysis of processes.

**Kirish;** Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Bugungi kunda mamlakatda akademik doirada ayollarning o'rni va mavqei oshirish, yangi avlod olimlarini tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag'batlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ko'zlangan maqsad va vazifalarga erishish esa ilm-fan sohasini isloh etish masalasiga tizimli yondashuvni talab qiladi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda xotin – qizlar hayoti, tarixiy taraqqiyoti, huquqiy vakolatlari kengayishi, ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni, glaballashuv jarayonidagi ta'siri bilan bog'liq jarayonlar tahlilidan iborat. O'zbekistonda xotin – qizlar huquqi va ularni qo'llab – quvvatlashga doir mexanizmlar, tarixiy rivojlanish jarayonlaridan iborat. O'zbekistonda xotin – qizlarning huquqi va ularni qo'llab – quvvatlashga doir mexanizmlar, tarixiy rivojlanish jarayonlari, ularga berilayotgan imkoniyatlar va qiynayotgan masalalar hamda takliflar keltirib o'tilgan.

Xussusan 1999-yil 14- apreldagi 760-sonli “Xotin qizlarning qo'shimcha imtiyozlari to'g'risidagi”, O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2003- yil, 29- avgust “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylovi to'g'risidagi” qonuni, 2017- yildan keyingi davirda esa 2019 – yil 17- avgustdagi “ Xotin - qizlarning mehnat huquqlari va imkoniyatlari kafolati to'g'risidagi” qonuni, 2019 – yil, 7 – martdagi “Xotin – qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab – quvvatlashga” doir qarorlari jamiyatimizda xotin – qizlarning teng ijtimoiy munosabatlarga kirishishi

uchun huquqiy asoslar edi. “Keyingi davirda O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy- siyosiy faoligi jihatidan barcha mehnat resurslarining 48% tashkil etadi. 2013- yil holatiga ko‘ra Markaziy Osiyo mamlakatlarida siyosiy sohadagi ishtirokchi parlamentdagi o‘rinlar bo‘yicha Tojikiston eng past ko‘rsatkich -14,7% ni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tarkibida 22%, Senatda 15% ni ayollar tashkil etadi.”<sup>1</sup> Bu ko‘rsatkich bugungi kunda ijobiy tomonga o‘zgarib xususan, O‘zbekiston Qonunchilik palatasida 32%, Senatda 25% ga ko‘tarilgan. Shunga doir islohatlar natijasida jamiyatda hukum surayotgan farovonlikni taminlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu malumotlar orqaliy Markaziy Osiyo mamlakatlari O‘zbekiston Respublikasi hududida ham xotin – qizlarning teng huquqliligini kafolatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatlari, xotin – qizlar bandligini taminlash, ularning kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi barcha sohalar doirasida xotin – qizlar faoligini oshirishga doir bosqichlarni o‘rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni keltirishimiz mumkin.

--- jamiyatda shakillangan “ ayollarga xos kasiblar” tushunchasini muomaladan chiqarish, yoki ularning turlarini kengaytirish, erkin kasb tanlashga imkoniyat yaratish.

--- uy vazifalari, bolalarni tarbiyalash kasbiy faoliyatiga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofaadan turib ishlash faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

--- nodavlat tashkilotlari bilan keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqaliy xotin qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish. Bu orqaliy o‘z qobiliyatini yanada rivojlantirish {uy sharoitida }, namoyon qilish imkonini berish.

--- huquqiy ta‘limda xotin- qizlar savodxonligini oshirish maqsadida loyihalarni yo‘lga qo‘yish, siyosiy karyerada, davlat boshqaruvida xotin – qizlar ishtirokini oshirish, ularga mos ish o‘rinlari ustida yangicha yondashuvlarni tashkil etish asosiy davlat siyosatining vazifalari hisoblanadi.

Ammo bugungi kunda jamiyatimizda ayyolarga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda juda ham ko‘p kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. Tenglik va kamsitilmaslik 1945 – yilda qabul qilingan Birlashkan Millatlar Tashkiloti Nizomining asosiy ta‘moyillaridandir. Ayollar huquqlari - inson huquqlari bo‘lganligi sababli, ayollar barcha inson huquqlariga ega va ulardan foydalanadi. Shu ma‘noda gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy qadiryatlaridan biri bo‘lib, ayollarning kamsitish deyarli barcha inson huquqlari to‘g‘risidagi shartnomalarda tastiqlangan. Bugungi kunda zo‘ravonliklarsiz yashash huquqi, jismoniy va ruhiy salomatlikni eng yuqori darajasiga erishish huquqi, ta‘lim olish huquqi, mulk huquqi, teng ish haqqi olish huquqi va boshqa barcha inson huquqlari ayollar uchun ham taminlanishi kerak. Biroq, butun dunyo bo‘ylab millionlab ayollar ushbu huquqdan foydalanishda kamsitilishlarga duch kelishda davom etishmoqda.”Bunday huquqiy buzilish, afsuski yurtimiz hududida ham kuzatilmoqda. Ummuman olganda O‘zbekistonda ayollarning atiga 17,7% oliy malumotga ega, ba‘zi hududlarda bu raqam undan ham past. Masalan Qashqadaryoda xotin – qizlarning atiga 8% oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan bo‘lsa, Toshkent viloyatida bu ko‘rsatkich 9,1 % ga teng.”<sup>2</sup> Andijon, Namangan va boshqa viloyatlar doirasida ham oliy ta‘limda o‘qishni davom etirayotgan qizlarning foizlari juda kam. Bunga asosiy muammolar esa erta turmish, oilada ta‘lim olish uchun sharoitning to‘la darajada yetishmasligidir. Xotin – qizlarning ta‘lim olishidagi eng katta muammo, bu “erta turmish” masalasidir. Bugungi kunda juda ham ko‘p kuzatilayotgan jarayon, endigina maktab ta‘limini tugatgan qizlarning ota – onalari, shuningdek yaqin insonlari tomonidan ularning orzu – intilishlari va maqsadlarini tushunmasdan turmushga uzatilayotganligi, shuningdek oilaviy muhitdan kelib chiqib ba‘zi qizlarning o‘z maqsadlarini amalga oshira olmayotganligi. Bu muammolar to‘la darajada hal etilmas ekan biz ko‘zlangan maqsadga erisha olmaymiz. “ayollarning ta‘lim olishi - bu

<sup>1</sup> 1999 – yil 14 – apreldagi “ Xotin – qizlarning qo‘shimcha imtiyozlari to‘g‘risida” gi 760- sonli qonuni.

2003 – yil 29 – avgust “ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Saylovi” to‘g‘risidagi qonuni.

2019 – yil 17 – avgustdagi “ xotin – qizlarning mehnat huquqlari va imkoniyatlari kafolati” to‘g‘risidagi qonuni.

<sup>2</sup> <https://www.gazeta.uz. > womens>

butun jamiyatning va ertangi avlodning ham ta'lim olishidir". Garchi oliy ta'lim butun O'zbekiston jamiyatida qadrlansada, universitet talabalari o'rtasida jiddiy gender tafovut mavjud. 2021- 2022 yillar o'quv yilidan O'zbekistondavlat oliy o'quv yurtlarida 808, 4 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ularning 45,6% ayollarni tashkil etadi.

{ 439,4 ming nafari yigitlar, 369 ming nafari qizlar} . 2019 – yilda bakalavr darajasini olgan 65,4 ming nafar bitiruvchining atiga 38,3 % ayollarni tashkil etadi. Bu xolatdan yaqqol ko'rinadiki "erta turmish" va oilaviy sharoitdagi muammolarni hal etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab ta'limini tugatayotgan har bir qizlarning qaysi kasbga qiziqishi va ularning orzu – maqsadlari, birinchi navbatda ota – onasi va o'qtuvchilaridan so'ralishi lozim. Qiz farzandning o'qishi shart emas deb fikirlovchi otanalarga, mahallalarda "O'zini - o'zi boshqaruvchi o'rganlar" tomonida tushintirish ishlari olib borilishi lozim." Ba'zida qizlarning o'zi qiziqqan sohalariga o'qishga topshira olmayotganligi ham yaqqol ko'zga tashlanadi, misol uchun: fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo'nalishlarini o'rniga STEREOTIP "ayol" mutaxassisliklarni taminlash jamiyatda bosim bilan bog'liq. Ayollar turmish qurgandan so'ng uy – rozg'ori va bolalariga g'amxo'rlik qilish kutiladi, bu esa ularga to'liq vaqti ish bilan shug'illanishga to'sqinlik qiladi degan stereotip bor. O'qtuvchilik kasbi esa uy – ro'zg'orga ko'proq moslashuvchan hisoblanadi. Shu holatdan kelib chiqib yurtimiz hududida pedagoglarning ko'pchiligi ayollarni tashkil qiladi. O'zbekistonda yolg'iz ayollar o'rtasida bandlik darajasi 52% ni, turmushga chiqqan ayollarda esa 36% ni tashkil etadi. Bundan tashqari ayollarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik ham asosiy muammolardandir. Oliy malumotga ega bo'lmaslik ayollarning moliyaviy ahvoriga ta'sir qiladi, bu esa ularning boshqa qiyinchiliklari qatorida maishiy zo'ravonlikka ko'proq moyil qiladi. 2021 – yilda o'tkazilgan so'rovnomada respondentlarning 42% ni moliyaviy sabablarga ko'ra uydagi zo'ravonlikka toqat qilishini malum qilgan. Ular ajrashgan taqdirda o'zini va bolalarini ta'minlay olmaslikdan qo'rqadilar"<sup>3</sup>. Bugungi kunda esa O'zbekistondagi asosiy ustuvor maqsad gender tafovutni bartaraf etish va talaba qizlarni o'qish jarayonida ko'plab imkoniyatlarni yaratish hisoblanadi. O'zbekistonda xotin – qizlarning muammolari yetarlicha. Garchi ularga ta'lim olishda turli grant, imtiyozlar berilayotgan, ayollarni qo'llab – quvvatlashga harakat qilinayotgan bo'lsada, hali qilinmagan ishlar ham yetarlicha. 11- oktabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Xalqaro qizlar kuni belgilangan bo'lib, 2012 – yildan beri bu sana har yili jahon bo'ylab turli davlatlarda qizlarning kamsitilishi, ularning ijtimoiy muammolariga jahon hamjamiyati etiborini jalb qilishdan iborat. Qizlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va siyosiy huquqlaridan, tibbiy xizmatdan foydalanishga imkon berish uchun dunyo ahlining say harakatlarini birlashtirish ham bu sananing mohiyatini tashkil etadi. Ta'lim sohasida ha qizlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda , xususan ular uchun oliy o'quv yurtlarida maxsus qo'shimcha qabul kvotalari joriy etildi ." 2022 – yildan boshlab ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi . Buning uchun , joriy yildan banklarga 1 trillion 800 milliard so'm mablag' ajratiladi. Ehtiyojmand oilalardagi xotin – qizlarga oliy ta'lim muassasalariga kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi. Tavsiyanoma quyidagi mezonlar asosida taqdim etiladi:

--- To'liqsiz oilada tarbiyalangan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar.

--- Kam taminlangan oiladagi xotin – qizlar.

--- Turmish o'rtog'I vafot etgan, voyaga yetmagan farzabдини yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar.

--- Nogiron farzandi bor ehtiyojmand oiladagi xotin – qizlar.

<sup>3</sup> [https:// cyberleninka.ru](https://cyberleninka.ru)

--- 2 va undan ortiq farzandini tarbiyalayotgan, qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg'iz ayollarning qiz farzandlari.

--- Ota – onalaridan biri yoki ikkisini ham I yoki II guruh nogironi bo'lgan ehtiyojmand oiladagi xotin – qizlar. <sup>4</sup>

Keyingi islohatlar doirasida esa xususan, magistraturada o'qiyotgan xotin – qizlarning kontrakt to'lovlarini qoplab berish tartibi belgilanadi. Magistraturada to'lov shartnomaasosida o'qiyotgan xotin – qizlarning kontrakt summasini davlat budjetidan qoplab berish tartibi tasiqlangan. Buning uchun talabgorlar 15 – sentabrga qadar o'zlari ta'lim oladigan muassasa rektori nomiga ariza bilan murojaat etishlari talab qilinadi. Shuningdek, hukumat qarori bilan har bir hududdan ota – onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz 100 nafar ayollarning to'lov kontrakti hokimliklar tomonidan har yili to'lab beriladi. 50 nafargacha xotin – qizlar birinchi o'quv yilida bepul o'qitilishi ham ko'zda tutilmoqda bu kabi imtiyozlarning joriy etilishidan ham asosiy maqsad xotin – qizlarning ta'lim olishi jarayonida qulayliklarni joriy etish va ta'lim olishga jalb qilishdir.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, aslida ayolni e'zozlash, opa- singillarimizni rozi qilish o'z- o'zidan bo'ladigan oson ish emas. Bularning barchasi yurtimizda inson manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilayotgan uzluksiz islohatlar samarasidir. Mamlakatimizda xotin - qizlarning huquqi va manfaatlarini ta'minlash, oila va xotin – qizlarni ijtimoiy qo'llab – quvvatlash borasida katta yangiliklar bo'ladi. Qonunchilikda, boshqaruv tizimida oila va xotin - qizlar masalalariga yanada chuqur yondashadigan mexanizmlar, qatori institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi. Bundan ko'zlangan hamma maqsad aslida jamiyatimizda ayollarning ijtimoiy faolliklarini yanada oshirish, ularning ta'lim olish, shuningdek ishlash jarayonida qulayliklarni yaratishdan iboratdir. Ammo jamiyatimizda yuzaga kelayotgan ayollarning ta'lim olishidagi muammolar ham bir qancha. Bularning yechimi sifatida ayollarning ta'lim olishidagi muammolarni har birini izchillik bilan o'rganish, mahallalarda, ta'lim maskanlarida ayyolar bilan ishlash bo'yicha kengashlarni tashkil qilish, shuningdek maktab ta'limi jarayonida qizlarning qaysi kasbga qiziqishi va kelajakda kim bo'lmoqchiligi masalalarini o'qtuvchilar tomonida o'rganilishi lozim. Agar biz qizlarning ta'lim olish jarayoniga e'tiborsizlik qilsak, bu jamiyatimizning ham ma'naviy olamiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“Xotin – qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakillariga barham berish” to'g'risidagi konvensiya T: BMT ning O'zbekistondagi vakolatxonasi 1998. 16-17 betlar.
- 2.Inomova S>T “E'zozli ayol istiqboli” kitobi T: 2005. 8- bet.
- 3.G.O'razalieva “ Gender va ayollar huquqiy madaniyati”T: 2009 25- 27 betlar.

1.

<sup>4</sup> <https://www.sammu.uz>.



Worldlyknowledge.uz